

HARBIY XIZMATCHILAR XIZMAT FAOLIYATIDA PROFAYLING USULINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamatxonov Nodirxon Sadriddin o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy xizmatchilar xizmat faoliyatida profayling usulini qo'llashning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinib, xulosalar harbiy xizmat tizimida psixologik nazoratni kuchaytirish, ichki xavfsizlikni ta'minlash va shaxsiy tarkib faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: profayling, harbiy xizmatchilar, psixologik tahlil, bixevioral tahlil, ichki xavfsizlik, ruhiy holat monitoringi, tahdidlarni oldindan aniqlash, harbiy psixologiya.

Kirish

Hozirgi kunda harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyati samaradorligini oshirish, xavfsizlikni ta'minlash va ichki tartib-qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu borada zamonaviy psixologiya va kriminalistika fanlari yutuqlari asosida ishlab chiqilgan metodlardan biri — profayling usuli hisoblanadi. Profayling — shaxsning psixologik, bixevioral (xulq-atvor) va ijtimoiy alomatlari asosida uning ehtimoliy harakatlari va psixologik holatini bashorat qilish usuli bo'lib, uni harbiy xizmat faoliyatida qo'llash orqali turli tahdidlarni oldindan aniqlash, xavfli vaziyatlarni bartaraf etish hamda shaxslar o'rtasidagi muammoli holatlarni professional darajada hal etish imkoni paydo bo'ladi.

Dunyo tajribasida, xususan, AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya, Izrail va Yaponiya kabi davlatlar harbiy xizmat tizimida profayling usulini keng qo'llab kelmoqda. Bu orqali ichki tartibni saqlash, shaxsiy tarkib orasidagi ziddiyatlarni oldini olish, ichki xavfsizlikni ta'minlash, shaxsni baholash va unga munosib vazifa topshirish jarayonlarida yuqori samaradorlikka erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham milliy xavfsizlik va ichki tartibni ta'minlash, harbiy xizmatchilarning ruhiy va psixologik holatini o'rganish, ularni to'g'ri yo'naltirish hamda xavfli shaxslarni oldindan aniqlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu boradagi huquqiy-me'yoriy baza, metodik ko'rsatmalar va ilmiy-amaliy tadqiqotlar yetarli darajada emas. Shu bois, mazkur maqola harbiy xizmat faoliyatida profayling usulini qo'llashning nazariy asoslari, amaliyoti va mavjud muammolari hamda ularni hal etish yo'llarini o'rganishga bag'ishlanadi.

Profayling tushunchasi va nazariy asoslari.

Profayling (inglizcha profiling so'zidan olingan bo'lib, "shaxsiy portret tuzish" ma'nosini anglatadi) — shaxsning tashqi ko'rinishi, xulq-atvori, verbal va neverbal





belgilarini tahlil qilish orqali uning psixologik holati, niyati va ehtimoliy harakatini bashorat qilish metodi hisoblanadi. Bu usul birinchi marta kriminologiya va xavfsizlik tizimida ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik harbiy xizmat, huquq-tartibot idoralari, transport xavfsizligi va boshqa sohalarda ham keng qo'llanila boshladi.

Profaylingning nazariy asoslari

Bixeviorizm nazariyasi

Verbal va neverbal kommunikatsiyalar nazariyasi

Psixologik tipologiyalar

Kriminal psixologiyasi

Profayling jarayonida ushbu nazariy asoslardan foydalangan holda, shaxsning tahdid solish ehtimolini baholash, uning harakatini oldindan bashorat qilish va zarur choralar ko'rish mumkin bo'ladi.

Profaylingning rivojlanish tarixi

Profayling XIX asr oxiri va XX asr boshlarida kriminalistikada paydo bo'lib, avval jinoyatchilarni aniqlash maqsadida ishlatila boshlangan. AQShda FBR tomonidan 1970-yillarda qotillarning psixologik portretini tuzish orqali jinoyatlarni fosh etish amaliyoti joriy qilingan. Keyinchalik bu usul xavfsizlik xizmati va harbiy tuzilmalarda ham tatbiq etilib, turli tahdidlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Hozirgi kunda profayling nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashish, balki harbiy xizmatchilar orasida ichki intizomni ta'minlash, psixologik holatni kuzatish, xavfli shaxslarni ajratib olish va turli tahdidlarni oldindan bartaraf etish maqsadida ham foydalanilmoqda.

Harbiy xizmatchilar faoliyatida profaylingning ahamiyati.

Harbiy xizmat spetsifikasida bu harbiy xizmat juda yuqori intizom, mas'uliyat, ruhiy bardosh va ichki tartib-qoidaga rioya qilishni talab etadigan sohadir. Harbiy xizmatchilar doimo stress, xavf va murakkab psixologik sharoitlarda faoliyat yuritishadi. Bunday sharoitlarda shaxsiy tarkibning ruhiy holati, emotsional barqarorligi va xulq-atvorini nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Profayling uslubi harbiy qism va bo'linmalarda quyidagi vazifalarni samarali bajarish imkonini beradi:

shaxsiy tarkibning ruhiy holatini baholash;

ichki nizolar va ixtiloflarni oldindan aniqlash;

xavfli shaxslarni ajratib olish;

intizom buzilishining oldini olish;

xizmatchilarning shaxsiy salohiyati va qobiliyatini baholab, vazifalarni to'g'ri taqsimlash.

Qo'llanish sohalari





Profayling harbiy xizmat faoliyatida quyidagi yo'nalishlarda keng qo'llaniladi:
Shaxsni baholash jarayonida.
Ichki xavfsizlikni ta'minlash.
Ichki nazorat va tahlil.
Tahdidlarni oldindan aniqlash.

Ijtimoiy-psixologik omillar orqali:
ruhiy tushkunlik, stress, depressiya holatidagi shaxslar;
ijtimoiy moslashishda qiynalayotgan xizmatchilar;
agressiv va konfliktli shaxslar;
xavfli niyatdagi shaxslarni aniqlash imkoni yaratiladi.

Bu jarayon shaxsiy tarkibda ruhiy barqarorlikni saqlash, jamoada sog'lom muhit yaratish, intizomni ta'minlash va harbiy qismning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Amaliy misollar va Jahon tajribasi natijalari.

Dunyoda ko'plab mamlakatlar harbiy xizmat tizimida profayling usulidan samarali foydalanmoqda. Ayniqsa, AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya va Isroilda ushbu metod xavfsizlik xizmati va harbiy razvedka sohasida asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

AQShda FBR va harbiy maxsus xizmatlar shaxsiy tarkibni tanlash, xavfli shaxslarni ajratish, ichki intizomni ta'minlash va tahdidlarni oldindan aniqlashda bixevioral profaylingni qo'llab kelmoqda. Masalan, Afg'oniston va Iroqda xizmat qilgan AQSh harbiylariga maxsus profayling kurslari o'tkazilgan.

Rossiya Qurolli Kuchlarida harbiy psixologik xizmat tizimida profayling keng tatbiq etilmoqda. Bu orqali shaxsiy tarkibda ruhiy holat monitoringi, xizmatchilar o'rtasida konfliktlarni oldini olish va lavozimlarga shaxsni to'g'ri tayinlash ishlari olib boriladi.

Isroil mudofaa kuchlari shaxsiy tarkib orasida o'z josuslari va diversantlarni aniqlash, ruhiy barqarorlikni saqlash va terroristik tahdidlarni oldindan aniqlash uchun profaylingdan samarali foydalanadi.

O'zbekistondagi tajriba natijalari O'zbekiston Milliy gvardiyasi, Qurolli Kuchlar va IIV tizimlarida shaxsiy tarkibning psixologik holatini o'rganish va baholash ishlari yo'lga qo'yilgan. Psixologlar va ofitserlar shaxsiy tarkib bilan muntazam suhbatlar, test sinovlari, o'rganishlar olib borishadi. Biroq profaylingning to'liq metodik va ilmiy asoslangan tizimi hali joriy qilinmagan. Faqat ayrim harbiy qismlarda:

shaxsiy tarkib bilan verbal va neverbal kuzatuvlar olib boriladi;
psixologik so'rovnomalar o'tkaziladi;
ruhiy holat monitoringi amalga oshiriladi.





Umuman olib tahlil qilganda Jahon tajribasi va O'zbekiston amaliyotini qiyoslaganda, quyidagi farqlar mavjud:

Rivojlangan mamlakatlarda profaylingning to'liq metodik bazasi va qonuniy asoslari mavjud.

Harbiy xizmatchilar profayling bo'yicha muntazam o'quv kurslaridan o'tib, amaliy ko'nikmalarni olishadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy qilingan.

O'zbekistonda esa ayrim shaxsiy kuzatuv va testlardan tashqari, umumiy metodika va zamonaviy vositalar yetarli emas.

Mavjud muammolar tahlil qilganimda:

Metodik ta'minot va mutaxassislar yetishmasligi

Texnik imkoniyatlar cheklanganligi

Qonunchilik va huquqiy asoslar

Xizmatchilarning ruhiy tayyorgarligi

Xulosa:

Harbiy xizmatchilar faoliyatida profayling usulini qo'llash xizmat samaradorligini oshirish, ichki intizomni mustahkamlash va psixologik xavflarni oldindan aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Profayling xizmatchilarning ruhiy holatini baholash, tahdidli shaxslarni ajratib olish va jamoadagi ijtimoiy muhitni yaxshilash uchun samarali vosita hisoblanadi.

Ammo O'zbekiston harbiy tizimida profaylingni to'liq va zamonaviy usullar bilan joriy qilish uchun metodik, texnik va huquqiy jihatdan aniq choralar ko'rish talab etiladi. Mutaxassislarni tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xizmatchilar orasida tushuntirish ishlarini olib borish bunday muammolarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Т.10. – Т., 2002й.
2. Ўзбекистон Республикасининг 18.11.2020 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги Қонуни Тошкент ш., 2020 йил 18 ноябрь, ЎРҚ-647-сон мурожаат санаси 22.01.2023 йил
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги концепциясини касдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони
4. Пенитенциар психология: Маърузалар курси / Б.Н.Сирлиев,





Р.Х.Душанов, Э.Н.Сирлиев, И.Х.Калонов, Д.А.Таджибаева ва бошқ.; Масъул муҳаррир Ш.Т.Икрамов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016.

5. Ахборотнинг ишончилигини баҳолашда профайлинг технологияси ва полиграфнинг аҳамияти –: Ўқув-методик қўлланма / Тузувчи-муаллифлар: Е. Ю. Агзамова, Ф. А. Шигакова. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015.

6. Жинойтчи шахсининг вербал ва новербал психодиагностикаси ва уни ўрганиш методикаси: Ўқув-амалий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015

7. Қодиров А., Исмоилов М. «Қурбонлик» ёки «шахидлик» кўринишидаги террорчилик // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2004.

8. Чаленко Н.В. Развитие социально-психологической компетенции сотрудников службы профайлинга: Дис. ... канд. пед. наук. — М., 2010

